



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIVAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIVALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ	97
Ташмухамедова Карима Саматовна	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	104
Тарават Абдул Салам	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	



BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA).....	125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi	
MHXSDA TUSHUM VA MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH	132
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
Latipov Jahongir Shavkatovich	



BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Latipov Jahongir Shavkatovich

Navoiy viloyati bojxona boshqarmasi

Bojxona to'lovlari va statistikasi sho'basini katta inspektori, Mayor

Annotatsiya. Mazkur maqolada bojxona imtiyozlarining davlat byudjeti daromadlariga ta'sirini baholashning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilib, O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan bojxona imtiyozlari tizimining fiskal samaradorligini aniqlashga qaratilgan metodologik yondashuvlar takomillashtirilgan. Tadqiqot davomida bojxona to'lovlari bo'yicha taqdim etilayotgan imtiyozlarning byudjet daromadlariga ta'siri, iqtisodiy faollikni rag'batlantirishdagi o'rni hamda ularning fiskal xarajatlarini baholash mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan **tax expenditure** konsepsiyasi asosida bojxona imtiyozlarining samaradorligini kompleks baholash mezonlari ishlab chiqilgan. O'zbekistonning rasmiy statistik ma'lumotlari va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida bojxona imtiyozlarining byudjet yo'qotishlari, investitsion faollik, ishlab chiqarish hajmi hamda tashqi savdo ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: bojxona imtiyozlari, davlat byudjeti daromadlari, fiskal samaradorlik, bojxona to'lovlari, soliqlar xarajatlari (tax expenditure), byudjet yo'qotishlari, bojxona siyosati, tashqi iqtisodiy faoliyat, investitsion rag'batlantirish, fiskal tahlil, byudjet prognozlash, bojxona statistikasi, iqtisodiy samaradorlik, davlat moliyasi, metodologik yondashuv.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретико-методологические основы оценки влияния таможенных льгот на доходы государственного бюджета, а также усовершенствованы методологические подходы к определению фискальной эффективности системы таможенных льгот, действующей в Республике Узбекистан. В ходе исследования проанализировано влияние льгот по таможенным платежам на доходы бюджета, их роль в стимулировании экономической активности и механизмы оценки связанных с ними фискальных расходов. Кроме того, на основе международной концепции **tax expenditure** разработаны комплексные критерии оценки эффективности таможенных льгот. На основе официальных статистических данных Республики Узбекистан и действующих нормативно-правовых актов изучено влияние таможенных льгот на бюджетные потери, инвестиционную активность, объемы производства и показатели внешней торговли.

Ключевые слова: таможенные льготы, доходы государственного бюджета, фискальная эффективность, таможенные платежи, налоговые расходы (tax expenditure), бюджетные потери, таможенная политика, внешнеэкономическая деятельность, инвестиционное стимулирование, фискальный анализ, бюджетное прогнозирование, таможенная статистика, экономическая эффективность, государственные финансы, методологический подход.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations for assessing the impact of customs exemptions on state budget revenues and improves methodological approaches to evaluating the fiscal efficiency of the customs incentive system implemented in the Republic of Uzbekistan. The study analyzes the effects of customs duty exemptions on budget revenues, their role in stimulating economic activity, and the mechanisms for assessing the fiscal costs associated with such incentives. Furthermore, comprehensive evaluation criteria for customs exemptions are developed based on the internationally recognized **tax expenditure** concept. Using official statistical data and the current regulatory framework of Uzbekistan, the research investigates the impact of customs exemptions on budget revenue losses, investment activity, production output, and foreign trade indicators.

Keywords: customs exemptions, state budget revenues, fiscal efficiency, customs duties, tax expenditure, budget revenue losses, customs policy, foreign economic activity, investment incentives, fiscal analysis, budget forecasting, customs statistics, economic efficiency, public finance, methodological approach.



KIRISH

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro savdo hajmlarining kengayishi hamda davlatlarning investitsion jozibadorlik uchun o'zaro raqobati kuchayib borayotgan sharoitda bojxona imtiyozlari iqtisodiy siyosatning muhim instrumentlaridan biriga aylanib bormoqda. Mazkur imtiyozlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, texnologik modernizatsiyani rag'batlantirish, eksport salohiyatini oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishga xizmat qilishi bilan bir qatorda, davlat byudjeti daromadlari hajmiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bojxona imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligi va fiskal oqibatlarini baholash masalasi zamonaviy davlat moliyasini boshqarish tizimining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, byudjet daromadlarining barqarorligini ta'minlash hamda imtiyozlar natijasida yuzaga keladigan daromad yo'qotishlarini aniq hisoblash zarurati ushbu mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Xalqaro amaliyotda bojxona va soliq imtiyozlarining fiskal ta'sirini baholash masalalari uzoq yillardan buyon iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllangan. Xususan, International Monetary Fund, World Bank, Organisation for Economic Co-operation and Development hamda World Customs Organization tomonidan bojxona imtiyozlarining iqtisodiy va fiskal samaradorligini baholash bo'yicha qator metodologik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Rivojlangan mamlakatlarda "tax expenditure" konsepsiyasi asosida imtiyozlar tufayli byudjetga tushmay qolayotgan mablag'lar hajmini aniqlash va ularning iqtisodiyotga qay darajada foyda keltirayotganini baholash amaliyoti keng qo'llanilmoqda. So'nggi yillarda xalqaro tadqiqotlarda bojxona imtiyozlarining investitsiya faolligi, sanoat rivojlanishi, tashqi savdo hajmi va davlat moliyaviy barqarorligiga ta'sirini kompleks baholashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa mazkur yo'nalishda ilmiy asoslangan va universal metodologiyalarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni liberallashtirish, investitsion muhitni yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida bojxona imtiyozlari tizimi izchil takomillashtirib kelinmoqda. So'nggi yillarda ishlab chiqarish korxonalarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda strategik tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan qator bojxona preferensiyalari joriy etildi. Bunday imtiyozlar korxonalarning investitsion xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bojxona imtiyozlarining ko'lamini kengayishi ularning davlat byudjeti daromadlariga ta'sirini muntazam baholab borish, fiskal samaradorligini tahlil qilish hamda iqtisodiy natijadorligini kompleks mezonlar asosida aniqlash zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Natijada investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratildi va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining xarajatlari qisqartirildi. Shu bilan birga, bojxona imtiyozlari hisobiga davlat byudjetiga tushmay qolayotgan mablag'lar hajmini aniqlash, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda fiskal natijadorligini o'lchash masalalari hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizda ushbu yo'nalishdagi statistik va tahliliy ishlar olib borilayotgan bo'lsa-da, bojxona imtiyozlarining byudjet daromadlariga ta'sirini kompleks baholashga qaratilgan metodologik yondashuvlarni yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

Yuqoridagi holatlar shuni ko'rsatadiki, bojxona imtiyozlari birtomondan iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi muhim instrument bo'lsa, ikkinchi tomondan davlat byudjeti daromadlarining qisqarishiga sabab bo'luvchi fiskal omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotda bojxona imtiyozlarini faqatgina berilgan preferensiyalar hajmi yoki byudjet yo'qotishlari orqali emas, balki ularning investitsiyalar, ishlab chiqarish hajmi, qo'shilgan qiymat yaratish, eksport salohiyati va bandlikka ko'rsatgan ta'siri bilan o'zaro bog'liq holda baholash yondashuvi ilgari suriladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi bojxona imtiyozlarining iqtisodiy va fiskal natijalarini kompleks baholash imkonini beruvchi integrallashgan metodologiyani ishlab chiqish hamda uning asosida davlat byudjeti daromadlarini prognozlash va bojxona siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Mazkur yondashuv bojxona imtiyozlarining haqiqiy iqtisodiy samaradorligini aniqlash va ularni berish mexanizmlarini yanada maqbullashtirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bojxona imtiyozlarining davlat byudjeti daromadlariga ta'sirini baholash masalasi soliq xarajatlari (**tax expenditure**) nazariyasi doirasida shakllangan. Ushbu yo'nalish asoschisi Stanley Surrey soliq va bojxona imtiyozlarini davlatning yashirin byudjet xarajatlari sifatida baholab, ular orqali byudjetga tushishi lozim bo'lgan daromadlarning bir qismidan voz kechilishini ta'kidlaydi. Keyinchalik Malcolm Gillis, Howell Zee va Michael Keen



tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bojxona imtiyozlari investitsiyalarni rag'batlantirish vositasi sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, ularning fiskal samaradorligini muntazam baholab borish zarurligi asoslab berilgan. Olimlar imtiyozlarni saqlab qolish ularning iqtisodiy samarasi byudjet yo'qotishlaridan yuqori bo'lgan taqdirdagina maqsadga muvofiq ekanligini qayd etadilar.

Imtiyozlarning samaradorligini baholash metodologiyasi bo'yicha tadqiqotlarda ularning fiskal ta'sirini aniqlashning turli yondashuvlari ishlab chiqilgan. OECD metodologiyasiga ko'ra, bojxona va soliq imtiyozlarining qiymati, avvalo, "yo'qotilgan daromadlar usuli" (**revenue forgone method**) orqali baholanadi. Ushbu yondashuv imtiyozlar mavjud bo'lmagan sharoitda davlat byudjetiga tushishi mumkin bo'lgan mablag'lar hajmini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, xalqaro amaliyotda imtiyozlarni baholash faqat fiskal yo'qotishlarni hisoblash bilan cheklanmay, ularning investitsiyalar, ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sishga ta'sirini ham qamrab olishi zarurligi ta'kidlanadi. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlarda fiskal va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini integratsiyalashtirish holda qo'llash ustuvor yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda.

Zamonaviy tadqiqotlarda bojxona imtiyozlarining samaradorligini baholashda ularning uzoq muddatli iqtisodiy natijalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. A.-M. Geourjon va B. Laporte bojxona imtiyozlarini ayrim hollarda investitsion faollikni rag'batlantiruvchi vosita sifatida baholash zarurligini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, M. Keen imtiyozlarning haddan tashqari keng qo'llanilishi soliq bazasining qisqarishi va fiskal barqarorlikning zaiflashishiga olib kelishini qayd etadi. Shuning uchun xalqaro amaliyotda bojxona imtiyozlarining samaradorligini baholashda byudjet daromadlari, investitsiyalar, eksport hajmi va bandlik ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilish eng maqbul yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda induksiya va deduksiya, statistik va qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda iqtisodiy-demografik tahlil usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar Navoiy viloyatida mehnat resurslaridan foydalanish, aholi daromadlari va kambag'allik darajasi o'rtaidagi bog'liqlikni iqtisodiy jihatdan baholash hamda aholi farovonligini oshirish omillarini aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida bojxona imtiyozlarining davlat byudjeti daromadlariga ta'sirini baholash bo'yicha mavjud metodologik yondashuvlar tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, amaliyotda bojxona imtiyozlarining fiskal ta'siri asosan byudjetga tushmay qolgan mablag'lar hajmini aniqlash bilan baholanadi. Biroq mazkur yondashuv imtiyozlarning iqtisodiy faollik, investitsiyalar hajmi, ishlab chiqarish o'sishi va tashqi savdo ko'rsatkichlariga ta'sirini to'liq aks ettirmaydi. Shu sababli bojxona imtiyozlarining haqiqiy samaradorligini baholashda faqat fiskal yo'qotishlar bilan cheklanib qolish yetarli emasligi aniqlandi.

O'zbekiston amaliyotida bojxona imtiyozlarining fiskal ta'sirini baholash zarurati ayrim imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish natijalari orqali ham tasdiqlanadi. Xususan, 2020-yilda iqtisodiy samaradorligi past bo'lgan ayrim bojxona imtiyozlarining bekor qilinishi natijasida davlat byudjetiga qariyb 3 trln so'm qo'shimcha mablag' undirilgan. Mazkur mablag'larning tarkibi tahlil qilinganda, eng katta ulush avtotransport vositalari ishlab chiqarishda foydalaniladigan butlovchi qismlar bo'yicha bekor qilingan imtiyozlar hissasiga to'g'ri kelib, 1,5 trln so'mni tashkil etgan. Shuningdek, yog'och va undan tayyorlangan mahsulotlar importi hisobidan 700 mlrd so'm, uglevdorod xomashyosi bo'yicha 330 mlrd so'm, don mahsulotlari importi bo'yicha 320 mlrd so'm, yuk avtotransport vositalari bo'yicha 230 mlrd so'm, oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha 137 mlrd so'm hamda qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarish uchun olib kiritilgan texnologik uskunalari va butlovchi qismlar bo'yicha 50 mlrd so'm qo'shimcha bojxona to'lovlari davlat byudjetiga yo'naltirilgan.

Mazkur natijalar bojxona imtiyozlarining fiskal samaradorligini muntazam tahlil qilish davlat byudjeti daromadlarini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Iqtisodiy samaradorligi past imtiyozlarni davriy qayta baholash va optimallashtirish byudjet daromadlari bazasini kengaytirish hamda bojxona siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois bojxona imtiyozlarini baholashda faqat byudjetga tushmay qolgan mablag'larni emas, balki ularning investitsiyalar, ishlab chiqarish hajmi va kelgusidagi qo'shimcha soliq hamda bojxona tushumlariga ta'sirini ham kompleks baholash maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, bojxona imtiyozlarining bekor qilinishi yagona omil bo'lmaganligi ham kuzatiladi. Bojxona organlarida xavfni boshqarish tizimi, bojxona qiymatini aniqlash moduli va zamonaviy inspeksion ko'rik majmualarining joriy etilishi natijasida bojxona to'lovlari undirish samaradorligi sezilarli darajada oshgan.



Natijada davlat byudjetiga bojxona tushumlari 2018-yildagi 11 trln so'mdan 2019-yilda 17 trln so'mga, 2020-yilda esa 24 trln so'mdan ortiq darajaga yetkazilishi rejalashtirilgan. E'tiborlisi, ushbu davrda tashqi savdo aylanmasi va import hajmi mos ravishda 12,4 foiz hamda 16 foizga qisqargan bo'lishiga qaramay, bojxona tushumlari 47 foizga oshgan.

Yuqoridagi holat bojxona imtiyozlarining davlat byudjetiga ta'sirini baholashda faqat undirilmay qolgan mablag'lar hajmini emas, balki imtiyozlarni optimallashtirish, bojxona ma'murchiligini takomillashtirish hamda nazorat samaradorligini oshirish natijasida shakllanadigan qo'shimcha fiskal tushumlarni ham kompleks ravishda hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Bunday yondashuv bojxona imtiyozlarining haqiqiy fiskal samaradorligini aniqroq baholash va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval.

2020-yilda ayrim bojxona imtiyozlarining bekor qilinishi
natijasida davlat byudjetiga qo'shimcha tushgan mablag'lar tarkibi


Bekor qilingan bojxona imtiyozi yo'nalishi	Davlat byudjetiga qo'shimcha tushum, mlrd so'm	Ulushi, %
Avtotransport vositalari ishlab chiqarish uchun butlovchi qismlar	1 500	49,8
Yog'och va undan tayyorlangan mahsulotlar	700	23,3
Uglevodorod xomashyosi	330	11,0
Don mahsulotlari	320	10,6
Yuk avtotransport vositalari	230	7,6
Oziq-ovqat mahsulotlari	137	4,6
Qishloq xo'jaligi texnikasi uchun texnologik uskunalar va butlovchi qismlar	50	1,7
Jami (qariyb)	3 000	100,0

Manba: Muallif tomonidan [Gazeta.uz](https://gazeta.uz) ma'lumotlari asosida tuzildi.

Jadvaldagi ulushlar qariyb 3 trln so'm qo'shimcha tushum asosida muallif tomonidan hisoblandi. Bu esa tahlil qismida bojxona imtiyozlarining fiskal samaradorligini baholashda qaysi yo'nalishlar davlat byudjetiga eng katta ta'sir ko'rsatganini aniq ko'rsatish imkonini beradi.

Tahlillar natijasida bojxona imtiyozlarining natijadorligini baholashda fiskal va iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llash maqsadga muvofiqligi asoslandi. Bunda baholash tizimiga byudjet daromadlarining o'zgarishi, investitsiyalar hajmi, eksport ko'rsatkichlari, yaratilgan yangi ish o'rinlari, ishlab chiqarish hajmining o'sishi hamda qo'shilgan qiymat miqdori kabi indikatorlarni kiritish tavsiya etildi. Mazkur yondashuv bojxona imtiyozlari natijasida yuzaga keladigan qisqa muddatli fiskal yo'qotishlarni uzoq muddatli iqtisodiy samaralar bilan qiyosiy baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bojxona imtiyozlarining samaradorligini baholashda "fiskal samaradorlik koeffitsiyenti"ni qo'llash taklif etiladi. Ushbu koeffitsiyent imtiyozlar natijasida erishilgan qo'shimcha iqtisodiy natijalar qiymatining byudjet yo'qotishlariga nisbatini ifodalaydi. Agar koeffitsiyent bir birlikdan yuqori bo'lsa, imtiyoz iqtisodiy jihatdan samarali deb baholanadi, aks holda uning maqsadga muvofiqligini qayta ko'rib chiqish zarur hisoblanadi. Taklif etilayotgan metodologik yondashuv bojxona imtiyozlarining iqtisodiy va fiskal natijalarini kompleks baholash, davlat byudjeti daromadlarini prognozlash aniqligini oshirish hamda bojxona siyosatining samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Bojxona imtiyozlarining davlat byudjeti daromadlariga ta'sirini baholashning integrallashgan metodologik modeli

Mazkur chizmada bojxona imtiyozlarining davlat byudjeti daromadlariga ta'sirini baholashning takomillashtirilgan metodologik yondashuvi aks ettirilgan. Modelning birinchi bosqichida bojxona imtiyozlarining fiskal ta'siri tahlil qilinib, unda bojxona tushumlarining kamayishi, byudjetning yo'qotilgan daromadlari, fiskal xarajatlar hamda soliq bazasining qisqarishi kabi ko'rsatkichlar baholanadi. Ushbu bosqich imtiyozlarning davlat moliyasiga bevosita ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Modelning ikkinchi bosqichi imtiyozlarning iqtisodiy natijalarini baholashga qaratilgan bo'lib, investitsiyalar hajmi, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, eksport salohiyati, yangi ish o'rinlari va qo'shilgan qiymatning o'sishi kabi indikatorlarni qamrab oladi. Bu ko'rsatkichlar bojxona imtiyozlarining iqtisodiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasini aniqlashga xizmat qiladi. Uchinchi blokda esa imtiyozlarni baholashning metodologik asoslari, jumladan, yo'qotilgan daromadlar usuli, taqqoslash, dinamik tahlil va xarajat-foyda yondashuvlari mujassamlashtirilgan.

Chizmada fiskal, iqtisodiy va metodologik tahlillar natijalari integrallashgan baholash tizimida birlashtiriladi. Ushbu tizim asosida samaradorlik koeffitsiyenti hisoblanib, imtiyozlarning iqtisodiy natijalari byudjet yo'qotishlari bilan taqqoslanadi. Natijada imtiyozlarni saqlab qolish, optimallashtirish yoki bekor qilish bo'yicha ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Taklif etilgan model bojxona imtiyozlarining nafaqat fiskal, balki iqtisodiy samaradorligini ham kompleks baholash orqali davlat byudjeti daromadlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot davomida bojxona imtiyozlarining davlat byudjeti daromadlariga ta'sirini baholashning nazariy-uslubiy asoslari o'rganildi hamda mavjud yondashuvlarning afzallik va kamchiliklari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bojxona imtiyozlari investitsion faollikni rag'batlantirish, ishlab chiqarishni kengaytirish va tashqi savdo hajmlarini oshirishda muhim iqtisodiy vosita hisoblanadi. Biroq ularning samaradorligini faqat byudjetga tushmay qolgan mablag'lar miqdori orqali baholash imtiyozlarning haqiqiy iqtisodiy natijalarini to'liq aks ettirmaydi.

Tadqiqot jarayonida bojxona imtiyozlarini baholashning integrallashgan metodologik yondashuvi taklif etildi. Mazkur yondashuv fiskal yo'qotishlar bilan bir qatorda investitsiyalar hajmi, eksport ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish o'sishi, yangi ish o'rinlari va qo'shilgan qiymat hajmi kabi iqtisodiy indikatorlarni ham qamrab oladi. Natijada bojxona imtiyozlarining davlat byudjeti daromadlariga ta'sirini yanada aniqroq baholash hamda ularning iqtisodiy samaradorligini kompleks tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.



Shuningdek, tadqiqotda bojxona imtiyozlarining natijadorligini aniqlash uchun iqtisodiy samara va byudjet yo'qotishlari nisbatiga asoslangan samaradorlik koeffitsiyentini qo'llash maqsadga muvofiqligi asoslandi. Ushbu ko'rsatkich imtiyozlarni saqlab qolish, optimallashtirish yoki bekor qilish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Bojxona imtiyozlarining fiskal ta'sirini baholash bo'yicha yagona metodologik tizimni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

Bojxona imtiyozlarini taqdim etishda ularning investitsiyalar, eksport, bandlik va ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini baholovchi mezonlarni qo'llash tavsiya etiladi.

Samaradorligi past bo'lgan bojxona imtiyozlarini bosqichma-bosqich qayta ko'rib chiqish, iqtisodiy natijadorligi yuqori bo'lgan imtiyozlarni esa saqlab qolish va takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bojxona imtiyozlari samaradorligini baholashda xalqaro tashkilotlar tomonidan tavsiya etilgan **“tax expenditure”** konsepsiyasi hamda xarajat–foyda tahlili usullaridan keng foydalanish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Surrey S.S. Pathways to Tax Reform: The Concept of Tax Expenditures. – Cambridge: Harvard University Press, 1973. – 225 p.
2. Baunsgaard T., Keen M. Tax Revenue and (or?) Trade Liberalization // Journal of Public Economics. – 2010. – Vol. 94. – No. 9–10. – P. 563–577.
3. Geourjon A.-M., Laporte B. Tax and Customs Duty Exemptions in Developing Countries: A Costly and Inefficient Incentive? – Clermont-Ferrand: FERDI, 2013. – 32 p.
4. Shadmankulov A.A., Jo'raboyev M. Qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarning fiskal faoliyatdagi o'rni // Izlanuvchi. – 2025. – № 7.
5. Kuldashev T.A. Bojxona tariflari va bojlari: bojxona soliqqa tortish darajasi hamda tariflarning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri // Ilmiy maqola.
6. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. – Toshkent, 2022.
7. O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi. Bojxona organlari faoliyati bo'yicha statistik ma'lumotlar va yillik hisobotlar. – Toshkent, 2020–2025.
8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotlar. – Toshkent, 2020–2025.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. – Toshkent, 2020–2025.
10. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (Lex.uz). Soliq va bojxona imtiyozlarini hisobga olish hamda baholashga oid normativ-huquqiy hujjatlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>